

JAVLON JOVLIYEVNING OBRAZ YARATISH MAHORATI

Gulruhbegim Narimbetova¹

Qoraqalpoq davlat universiteti

KEYWORDS

hikoya, janr, obraz, fantastik
obraz, xayoliy obraz, xarakter,
ruhiyat, ramziylik, badiiyat.

ABSTRACT

Ushbu maqalada hozirgi adabiy jarayonda o'zining hikoyalari bilan kitobxonlarning sevimli ijodkoriga aylanib ulgurgan Javlon Jovliyevning „Ayol“, „Lobar Lobar, Lobarim mening“ hikoyalari tahlil qilish orqali yozuvchining obraz yaratish mahorati xususida ayrim mulohazalar keltirilgan.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.15763501**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Javlon Jovliyev bugungi o'zbek nasrida „Ozodlik“, „Ayol“, „Lobar“, „Lobar, Lobarim mening“, „Buxoro, Buxoro...“ kabi hikoyalari va „Qo'rqma“ romani bilan o'z kitobxonlariga ega bo'lgan iste'dodli yosh ijodkorlardan. Adibning mazkur asarlarida yoritilgan mavzular o'zining dolzarbligi va tarbiyaviy ahamiyati bilan keng ommaning va adabiyotshunos ixlosmandlarining diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Javlon Jovliyev hikoyalarida yaratgan obrazlar xayoliy yoki fantastik to'qimalar emas. Ular siz va bizning oramizda yashayotgan oddiy insonlar. Javlon Jovliyevning hikoyalaridagi qahramonlar oddiy, sodda, omi qishloq insolari yoki ziyoli qatlam vakillari bir- biridan mutlaqo yiroqdek, lekin Javlon Jovliyev ularning umumiy va alohida xarakterlarini tahlil qila olgan. O'z hikoyalarida insoning botiniy va zohiriy dunyosi har doim ham muftanosib bo'lavermasligi inson ba'zon tashqi muhit ta'sirida o'zini anglay olmay qolishi mumkinligini kitobxonga yaqqol dalillab bergan.

Javlon Jovliyev hozirgi kunda ham samarali va saviyali ijod qilmoqda. Hozirgi kunda yaratilayotgan hikoyalarda qahramonlar harakatidan ko'ra ularning ruhiy holatidagi o'zgarishlar, his-tuyg'ularining barqaror emasligi, fikriy tug'yonlari tasviriga ko'proq e'tibor qaratyapti. Javlon Jovliyevning „Ayol“ hikoyasida ham xuddi shunday insonning ruhiy holatidagi evrilishlar tasvirlangan. Bu hikoyada yaratilgan „ayol“ obrazi, uning ruhiyatini tasvirlash, talqin qilish biroz mushkul. O'zbek ayollari o'zining sabri, matonati va

¹ Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi, o'zbek filologiyasi

mehnatsevarligi bilan har doim ulug'lanib kelingan. Lekin hayotda, oilada har kimning o'zining o'zni va ro'li bor. Mashhur adib Shekspir aytganidek: "Hayot o'zi bir sahna, Biz esa aktyorlarmiz". To'g'ri hayot o'zi sahna, unda qo'yiladigan namoyishning muallifi-tagdir. Agar shu namoyishda qahramonlar o'zni almashib qolsa asar to'laligicha mukammal ijroga ega bo'la olmaydi. Javlon Jovliyevning aynan „Ayol“ hikoyasida shu so'zlarning tasdig'ni ko'rish mumkin. Oiladagi erkak va ayolning o'zni almashib qolishi natijasida hayotida chigal muammolar va tuzatib bo'lmas xatolar vujudga kelgan. Natijada ayolning qadrsizlanishi, onaning e'tiborsiz qolishiga olib kelgan.

„Hali quyosh qishloqqa salom berib o'ynoqi teraklar mayin shabadaga tebranib shivirlamasdanoq ayol o'rnidan turib uydagi ishlarni saramjomladi. Keyin eski kiyimlarni kiydi-yu kavushini sudragancha dala tomon oshiqdi. Ushbu jumlar orqali muallif „Ayol“ning hayot tashvishlarini tortayotgan zahmatkash inson sifatida ko'rsatishga harakat qilgan. „Ayol“ fermerning yollanma ishchisi edi. Paxta, kartoshka, piyoz, kunjut, o'tog'ida kunlik to'lov evaziga mehnat qilar, oila shu pul bilangina kun ko'rardi. Eri ishsiz. Shu ikki og'iz so'zning „Eri ishsiz“ qanchalik qiyin vaziyatga olib kelishi asar davomida kitobxonga uqtirilgan.

Bir ayolning qadrsizlanish cho'qqisiga chiqqanligiga qaysidir ma'noda shu ikki og'iz so'z sababchidek. Haqiqatdan ham, bir oilada bir onaning, bir umr yo'ldoshning tug'ilgan kuni yaqinlari tomonidan unutilishi bu katta fojia. Bundan tashqari, farzandlarining otasidan o'rnak olib katta bo'lishi bu kelajakdagi shunday fojialarning ko'payishiga ishora emasmi. Oiladagi bu muvozanatning buzilishida ayolning ham hissasi yo'q emas. Uning xatosi o'zini erkak ro'liga qo'yib ko'rishida bo'ldi. -Tug'ilgan kunim....tug'ilgan kunim ...qutluf bo'lsin !- deya achchiq suvni ko'zini chirt yumgancha ichib yubordi. Ayni shu jumlar orqali muallif ro'llarning almashib qolganligiga ramziy ishora qilgan. Lekin Javlon Jovliyev bu „ayol“ da shunday kuchli matonat va iymon borligini ham bir og'iz jumla bilan ko'rsatgan. -Akamni ham ishlating-da...Quruqqa uyda yotqizib semirtirib boqmasdan-bu do'kondorning ayolga aytgan so'zlari. Agar ayol obrazidagi insonda ehtimol u do'kon sohibi bilan erini g'iybat qilib ketgan bo'lmasdi. Bu bizning fikrimiz, albatta. Lekin aslida achchiq haqiqat ham shudir. Chunki ayolni mehnat charchatmaydi, ayolni mehrsizlik, e'tiborsizlik, sevgisizlik charchatadi. Bu esa uning ayolligini unutilib qo'yishga olib kelishi mumkin.

Javlon Jovliyev o'z hikoyalarida ayollar obrazini, yaratish ularning ruhiy kechinmalarini yoritish, har bir obrazni xarakter darajasigacha olib chiqa olgani bilan xarakterli. „Ayol“ hikoyasida oddiy qishloq ayolining hayot tasvishlari qalamga olingan bo'lsa „Lobar, Lobar, Lobarim mening“ hikoyasida buning aksini ya'ni, o'qimishli, ilimli qatlam insonlarining hayot kamchiliklari qalamga olingan. Asar bosh qahramoni Lobar o'qimishli, oqdan qorani farqlay oladigan qiz. Lekin u hayotdagi bir haqiqatni esidan chiqarib qo'yadi. Dunyoda hech bir inson mukammal yoki ideal emas. Lobar esa o'z xayolidagi mukammallikni ortidan quvib bozlini qo'lidan chiqaradi. Ya'ni oldidan oqqan suvning qadriga yetmaydi. Hikoyada ayol uchun birinchi o'rinda oila degan muqadas qo'rg'on bo'lishi kerakligi asosiy g'oya qilib olingan. Shu hikoyani o'qir ekanmiz, beixtiyor buyuk adibimiz O'tkir Hoshimovning „Odam bo'lish qiyin“ romani to'g'risi shu roman uchun asos qilib olingan „Olim bo'lish oson, odam bo'lish qiyin“ maqoli esimizga tushadi.

Olim bo'lish uchun muttasil izlanish o'qish, harakatda bo'lish yangilik yaratishning o'zi kifoya. Lekin inson „odam“ bo'la olishi uchun yaratilgan ta'limot yo'q! Javlon Jovliyevning bu hikoyasida hissiyotlar ifodasi bilan g'urur to'qnashuvini ham ko'rish mumkin.

Masalan, “Bunaqa qaramang , iltimos sizdan, vay buni... nima sevib qoldim deb aytmoqchimisiz jinnivoy...

-Jinnilik qilmang

-Siz mening idealimdagi yigit emassiz

-Kim sizni sevaman demoqchi

O'zingizni xursand qilyapsizmi ...?

Ushbu jumalarda yuqoridagi fikrlarni isbotini ko'rish mumkin. Bu jarayonda biz hissiyotlardan ko'ra g'ururning ustunlik qilganligini guvohi bo'lamiz. Lobar „orzusidagi yorni intiqlik bilan, kutish yillari qancha cho'zilishini bilmay umid va ishonch bilan kutardi” shular uning eng katta xatosi ham shu edi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, bugungi o'zbek nasrida o'zining o'tkir sujetli, keng qamrovli, saviyali asarlari bilan faol yodda bo'lgan Javlon Jovliyev o'z hikoyalarida obraz yaratish mahorati yuksak ekanligini yaqqol namoyon eta olish qobiliyatiga ega. Uning “Lobar, Lobar, Lobarim mening” hikoyalaridagi obrazlari ana shunday xususiyatga ega qahramonlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Литературная энциклопедия терминов и понятий. Москва.НПК «Интелвак», 2001.-Ст.732.
2. Султон И. Адабиёт назарияси. Тошкент. Укитувчи, 2005. – Б.116.0-
3. Qosimov Y. She'r va dunyo. “Sharq yulduzi” jurnali. 1-son, 1989. 168-bet.
4. I.Sulton. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent.2005. B-115